VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

“ICHINGDAGI ICHINGDADUR” ASARI TAHLILI

Jamoldinova Durdona

Farg‘ona davlat universiteti filologiya

fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning “Ichingdagi ichingdadur” asarining ma’no nozikliklarini ochib berishda faol qo‘llangan hikoya va maqolatlarning bugungi kunga oid tarbiyaviy ahamiyati xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar

“Fiyhi ma fiyhi”, axloq, qomusiy hikoyat, nutq sohibi, misralar sharhi.

Abstract

This article talks about the educational importance of the stories and articles that are actively used to reveal the subtleties of the meaning of Jalaluddin Rumi's work "Ichingdagi Ichingdadur" for today.

Key words

"Fiyhi ma fiyhi", moral, encyclopedic story, speaker, review of verses.

Mavlono Rumiyning “Fiyhi ma fiyhi” asari qomusiy asar bo'lib, uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun o'ta dolzarb bo'lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulug' mutafakkirning teran axloqiy-ma'naviy, ijtimoiy-falsafiy mulohazalari badiiy ifodasini topgan.

Asar davomiyligida hikoyalarning yaxlit bir tizmlilikka ega tarzda ifoda etilishi turli mavzular ko‘lamida namoyon bo‘ladi. Bunda diniy ruhdagi hikoyatlar, tarixiy shaxslar siymosini yorituvchi afsona va rivoyatlar she’riy nasriy holatda va she’riy mislollar orqali o‘z ifodasini topgan. “Ichingdagi ichingdadur” asari Jaloliddin Rumiyning nazariy qarashlarini o‘z qamroviga olgan asargina bo‘lib qolmay, namunaviy tarzda mavzu muhokama, yechim tamoyili asosida yozilgan. Buni g‘oyaga mos keluvchi mavzu, mavzuga mutanosib rivoyat yoki hikoyat hamda muhokamalarga boy yechimning asar davomiyligida berib borilishi, so‘zimizning yaqqol misolidir. Rumiyning ushbu asari turli xil ma’no nozikliklari bilan birga tashqi unsurlar misolida real voqealarga asoslanib o‘z yechimini topadi. Buni biz hayvonlarga oid rivoyatlari misolida, tarixiy shaxslar qolaversa, o‘z zamondoshlari misolida keltirib o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bu asarda so‘z xususida juda ko’p joylarda to’xtalib o’tilgan. Unda so‘zning nutqqa chiqqanda nutq egasining umumiy fazilatiga bog‘liqligini, chunki har qanday inson ham chiroyli nutq sohibi bo‘lishi mumkin, ammo buning uchun u lozimligini eslatadilar. Quyida ularni sharhini ko‘rish orqali bu tushunchani yana ham mazmunini chuqurroq anglab olamiz. “So‘z idrok qilishda so‘zga muhtoj bo‘lganlar uchundir. Dunyo ham Qur’ondagi “Bo‘l” so‘zidan bino bo ‘lgandir”.

Buyuk so‘z ustasi so‘zning makoni qalb ekanligiga, ko‘ngildan chiqqan har bir so‘z insonning kim ekanligini ko‘rsatuvchi oyna ekanligini ham aytib o‘tadi. Mutafakkir so‘zning qiymatini, insonning qadrini ko‘taruvchi ham, ayni bir paytda pasaytiruvchi ham u ekanligini shu misralarida ko‘rsatib

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

beradilar. So‘zni so‘zlashda so‘zlovchi quyidagilarga alohida e’tibor berishi lozim. So‘z qisqa va mazmunli, takrorlardan xoli, tiglovchilarga yoqadigan mavzuda bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘lishini aytadilar. Haqiqatdan ham til qafasdagi she’r kabidir. Uning jilovi faqat jilovdorining izmida. Shunday ekan har birimiz o‘z tilimizni jilovlashni, uning faqat yaxshiliklar ulashishga xizmat qilishini ta’minlashga bel bog‘laylik. Ayniqsa Rumiyning so‘zning Alloh tomonidan in’om etilgan eng nodir tortiq ekanligi quyi so‘zlarda yaqqol ko‘rsatib erilgan.

“So‘z insonning qiymati qadar qadrlidir. Bizning so‘zimiz suvga o‘xshaydi. Suvni suvboshi oqizadi. Suv o‘zini mirob qaysi ariqqa haydaganini qayerdan bilsin? Balki karam balki piyoz dalasiga… Suv ko‘p kelsa, yer ham shunga yarasha keng bo‘ladi”. Yaratuvchi insonni yaratdi. Unga eng noyob hadya bo‘lmish tilni sovg‘a qildi. Bu imtiyozi bilan insonlar hayvondan farq qildi. Shuning uchun ham insonning insoniyligi bilindi. Rumiy umri davomida shunga o‘xshagan fikrlarni targ‘ib qildi. Insonning insoniyligini go‘zal husni emas, balki uning shirin kalomi belgilashini takror-takror ta’kidladilar. O‘zlari ham bunga amal qildilar. Shirin so‘zli bo‘lish, qo‘ldan kelgancha kishilarga yaxshilik ulashishi, kishilar qalbini shirin so‘zi bilan davolash mumkinligi haqida bot-bot uqtirib asarlarida buni meros qilib qoldirdilar.

Xulosa qilib aytganda Rumiy so‘zning yaratuvchini in’omi ekanligini, unga qilingan nopisandlik, isrofgarchilik, o‘rinsizlikning bir kun, albatta, jazosi borligi. Har kim o‘z nutqida so‘zning qudratini anglagan holda foydalanish kerakligini o‘rinli tushuntiriganlar. Mulohazalar yuritib tavsiyalar berganlar. Yozuvchi asarlarida insonlarni bilimli, donishmand, nafs quli bo‘lmasliklarini, ikkiyuzlamachilik, riyodan uzoqda yurishlarini istadi. Shuning uchun ham Rumiy asarlari xalqni birdamlikka chorlovchi ezgulikka eltuvchi insonni shaxs sifatida kamol toptiruvchi nodir xazinadir. Bu merosni o‘rganish bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Hozirgi kun yoshlari sifatida ham ushbu maqola orqali nutq madaniyatining bugungi kundagi ahamiyati hozirgi davr talabidan kelib chiqib muhim ekanligini yaxshi anglab, buning uchun bashariyat shoiri Rumiy asarlarini o‘qish orqali erishish mumkinligini tushunamiz. Chunki bu asarlar insonni insoniy fazilatlarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jaloliddin Rumiy. “Ichingdagi ichingdadir” -Toshkent, “Yozuvchi” nashriyoti,

2. Orif Usmon. Jaloliddin Rumiy. Muloqot . 1997

WORDLY KNOWLEDGE